
BAYRAM ARAFASIDA YANGI BOG'CHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Yangi yil bayrami arafasida Toshloq tumani "Varzak" mahallasidagi 5-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini boshladi. Ta'lim muassasasining tantanali tarzda tashkil etilgan ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev va sektor rahbarlari, soha xodimlari, usta quruvchilar hamda mahalliy aholi vakillari ishtirok etishdi. Tuman hokimi yangi foydalanishga topshirilgan bog'cha barcha sharoitlarga ega bo'lib, muassasa bolajonlarimizning sifatli boshlang'ich bilim olishlari, har tomonlama sog'lom o'sib-ulg'ayishiga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi. Tadbir ishtirokchilari binoda bolajonlarga muhayyo etilgan shart-sharoitlar bilan tanishar ekan, bu yerda yosh avlod uchun barcha qulayliklar yaratilganiga guvoh bo'lishdi.

Muassasa o'z bag'rida 180 nafar bolajonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega. Investisiya dasturi asosida Davlat byudjetidan 4 253 800 mlrd so'm mablag' sarflangan holda bino va inshootlar yangidan qurildi. O'yin maydonchalari, oshxona, musiqa zallari zamonaviy jihozlandi.

Tadbir so'ngida tarbiyalanayotgan bolajonlarga Yangi yil bayram sovg'alari topshirildi.

2022-12-29 18:34:04